

Viloyatda 2021 yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2022 yilgi rejalar to'g'risida

Bugun butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, umummilliy harakatga aylanib borayotgan **“Yangi O‘zbekiston”** g‘oyasi zamirida ulug‘ ajdodlarimiz, milliy tariximizda **Birinchi** va **Ikkinchi** uyg‘onish davriga asos solgan buyuk bobolarimizning orzu-intilishlari, armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Murojaatimni bu mavzu bilan boshlashimning sababi–yurtimizda hozir yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O‘zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda.

Bu jarayonda hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan inson qadri ulug‘lanayotgani, **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida kelgusi besh yilda ham amalga oshiriladigan barcha islohotlarimiz aholiga munosib turmush sharoiti yaratishga qaratilayotgani dunyo hamjamiyatida katta qiziqish o‘yg‘otmoqda.

Bunga birgina misol keltirsak, uzoq yillardan buyon fuqarolik pasporti masalasi ko‘pchilikni qiynab kelganini barchamiz yaxshi bilamiz. Joriy yilning o‘zida viloyatimizda **2 890 nafar** fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berilgani ham bu muammo o‘z yechimini topayotganiga yaqqol dalildir.

Yakunlanishiga oz fursat qolgan 2021 yilda hayotimizning barcha sohalari ilgari kuzatilmagan yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirdi, desak xato bo‘lmasa kerak.

Ushbu natijalar pandemiyaning iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga judda katta salbiy ta’sir ko‘rsatgan bir vaqtda erishilganligini alohida e’tirof etishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Poyoniga yetayotgan yilda yurtimizning barcha hududlarida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, iqtisodiyotimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta’minlovchi ko‘plab istiqbolli loyihalar ro‘yobga chiqarildi. Hududlar qiyofasi tubdan o‘zgarib, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar samarasi aholi hayotida o‘z ifodasini topa boshladi.

Avvalo, bu o‘rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishi** bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingani o‘zining ijobiy samaralarini ko‘rsatdi. Davlat va jamiyat rivojlanishida sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi.

Shunga ko‘ra, bugun biz, viloyat mutasaddilari, sektorlar rahbarlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, turizm, sport va boshqa barcha sohalarni rivojlantirish bo‘yicha joriy yil uchun belgilab olgan rejalarimiz qanchalik amalga oshgani, bu borada yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan Siz,

qadrli deputatlar va jamoatchilikka, ommaviy axborot vositalari xodimlari va blogerlarga batafsil axborot beramiz.

Qolaversa, sizlar bilan kelgusidagi ustuvor vazifalarimizni ham bamaslahat kengashib olamiz.

Zimmamizga yuklatilgan o'ta mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda bevosita tanti va mehnatkash xalqimizning o'ziga tayanib, fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borilmoqda. Har bir soha va tarmoq bo'yicha bevosita uchrashuvlar, maslahat va fikr almashuvlar o'tkazilmoqda.

Xususan, joriy yilda Xalq deputatlari viloyat Kengashining **39 ta** sessiyasi o'tkazilib, **224 ta** turli masala ko'rib chiqildi.

Sessiyalarda o'zim va sektor rahbarlari har chorakda shuningdek, Respublika vazirlik va idoralari mas'ul xodimlari **26 marta** hisobot berdi.

Joriy yilda Termiz shahri va tumanlar budjetlarining qo'shimcha manbalarining

1 iyulgacha **5 foizi** hamda 1 iyuldan boshlab **30 foizini** "Tashabbusli budjet jang'armasi"ga yo'naltirish orqali jami **20 mlrd. so'm** mablag'lar ajratildi hamda "**ochiq budjet**" tamoyili asosida hududlardagi fuqarolarning takliflariga asosida **16 mlrd. so'm**lar mablag'lar o'zlashtirildi.

Deputatlar tomonidan ko'plab savollar, xalqni qaynayotgan masalalar, takliflar bildirilgani ishimizni yanada samarali tashkil etishga katta yordam bo'ldi.

Bundan tashqari, o'tayotgan yilda shaxsan o'zim fuqarolar bilan hududlararo

22 marotaba sayyor qabul o'tkazdim.

Unda **3 ming 150 ta** murojaat qabul qilinib, shundan **2 ming 214 tasi** yoki **70 foizi** qanoatlantirildi.

Shuningdek, fuqarolardan to'g'ridan-to'g'ri **166 ming 113 ta** murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan **140 ming 51 tasi** yoki **90 foizi** qanoatlantirilgan.

Lekin, viloyatning barcha hududlarida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan, deya olmaymiz.

Jumladan, o'tgan yilga nisbatan **Bandixon, Angor, Jarqo'rg'on, Muzrabot tumanlari va Termiz** shahrida aholi murojaatlari soni oshgan.

Murojaatlarning **16 foizi** bolalar nafaqasi (18 yoshgacha bolalar uchun), **6 foizi** uy-joy bilan ta'minlash, **5,5 foizi** aliment undirish, **4 foizi** ish bilan ta'minlash masalasi, **3,5 foizi** maishiy gaz ballon bilan ta'minlash, **3 foizi** aholi yashash maskanlarida ichki yo'llarni ta'mirlash va qurish masalasiga to'g'ri kelishi bu sohada xali qilinishi kerak bo'lgan ko'plab muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Agar sektor rahbarlari yuqoridagi ijtimoiy muammolarni tizimli hal etish choralari ko‘rganida, fuqarolar bu muammolar bilan virtual va yuqori turuvchi idoralarga emas balki, joylardagi sektor rahbarlariga murojaat etgan bo‘lar edi.

Afsuski, bugun aholining huquqiy ongini, xususan, murojaat madaniyatini yuksaltirish ham dolzarb masala bo‘lib turibdi. Murojaatlar ichida ba‘zan oddiy mantiqqa to‘g‘ri kelmaydiganlari ham uchraydi.

Halqimiz «o‘ynab yozsang ham o‘ylab yoz» naqlini bejizga aytmagan.

Bir tashkilotga murojaat yo‘llayotgan odamda so‘z mas‘uliyati, fikr madaniyati, ma‘lumotlar uchun javobgarlik hissi bo‘lishi kerak.

O‘tkazilayotgan sayyor qabullarda to‘rt muchasi sog‘, kuch quvvatga to‘lgan, ishlab charchamaydigan yoshda bo‘lgan fuqarolarimiz xam turli masalalarda moddiy yordam berish haqida murojaat qilmoqda.

Ular ichida xattoki bir yilda 3 va 4 marotaba moddiy yordam ajratilgan fuqarolar xam uchrab turibdi.

O‘qimasa ham, diplomi bo‘lmasa ham mehnat qilib, uyida o‘tirib tikuvchilik qilish, chorva bilan shug‘ullanish, tomorqasiga ekin ekish orqali pul topayotgan va halol mehnati bilan oilasini boqayotgan, kerak bo‘lsa oramizda nogiron bo‘la turib, mehnat qilib, daromad olayotgan fuqarolarimiz borligi albatta, bizni quvontiradi.

Yangi ish o‘rinlar, subsidiya va kreditlar ajratish bo‘yicha imkoniyatlar keng yaratilayotgan bir paytda ulardan oqilona foydalanish fuqarolarimiz uchun juda muhim.

Har bir murojaatni ko‘rib chiqish, o‘rganish, tahlil etish uchun esa vaqt kerak. Agar murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalar muayyan hudud, odamlar, umuman, jamiyatimiz uchun foydali, adolatli va o‘rinli bo‘lsa, nur ustiga nur a‘lo bulur edi.

Misol uchun, menga joriy yilning noyabr oyida Uzun tumani **“O‘lanqul”** mahallasida yashovchi fuqarolarimiz ichki yo‘llarni ta‘mirlash, elektr energiya, ko‘prik qurish va bog‘cha qurib berish masalasida murojaat qildi. Bu murojaatlar o‘rganilib, **“O‘lanqul”** mahallasida yangidan **120 o‘rinli** bog‘cha qurish ishlari boshlandi. **15 km** ichki yo‘llarga tosh yotqizildi. Yangidan **2 km** elektr tarmog‘i tortilib, **1 dona** transformator o‘rnatildi. Ikki mahallani bog‘lovchi va o‘quvchilarning maktabga borishi uchun yangi ko‘prik qurish ishlari boshlab yuborildi.

Shuningdek, tadbirkorlar bilan yil boshidan buyon **43 marta** uchrashuv o‘tkazdik.

742 tadbirkor 804 masala bilan murojaat etdi. Ularning **733 tasi** ko‘rib chiqilib, **587 tasi** yoki **80 foizi** ijobiy hal etildi.

Aziz sessiya ishtirokchilari!

Ruxsat bersalaringiz endi viloyatda joriy yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni to'g'risida hisobotimni bersam.

Yil yakuni bilan viloyat bo'yicha **yalpi hududiy mahsulot** hajmi **28,2 trln. so'mni**, tashkil etib, o'sish sur'ati **106,6 foizni** teng bo'lishi o'sishi kutilmoqda.

Jumladan, **sanoat mahsulotlari** ishlab chiqarish hajmi **110,5 foizga (6,8 trln. so'm)**, **qishloq ho'jaligi** mahsulotlari yetishtirish **105,3 foizga (22,7 trln. so'm)**, **qurilish-pudrat ishlari** **108,1 foizga (5,6 trln. so'm)**, **chakana savdo aylanmasi** hajmi **107,2 foizga (15,7 trln. so'm)** va **xizmatlar** hajmi **120,6 foizga (11,1 trln. so'm)** o'sishi ta'minlanadi.

Biroq, bir qator hududlarda aholi jon boshiga ko'rsatkichlar viloyat ko'rsatkichiga nisbatan juda past darajada qolmoqda.

Misol uchun, aholi jonboshiga **sanoat mahsulotlari** ishlab chiqarish hajmi **Bandixon tumanida 8,4 barobarga**, **Uzunda 3,6**, **Oltinsoyda 3,1** va **Boysun tumanida 3 barobarga** past.

Xizmatlar hajmi **Oltinsoyda 1,6 barobarga**, **Uzun va Sho'rchi tumanlarida 1,5 barobarga**, **Qumqo'rg'onda 1,4 barobarga** past.

Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan joriy yilda jami **5,3 trln. so'm**dan ortiq kredit mablag'lari ajratildi.

Shundan,

- kichik biznes sub'ektlariga **2,6 trln so'm**;
- "**Har bir oila tadbirkor**" doirasida **777 mlrd. so'm**;
- "Hunarmandchilikni rivojlantirish" dasturi doirasida **19,3 mlrd. so'm** imtiyozli kredit mablag'i ajratildi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida aholiga **777 mlrd. so'm** imtiyozli kredit ajratilishi hisobiga, **9 000 ta** issiqxona, **3591 ta** chorvachilik, **404 ta** bog'dorchilik, **396 ta** baliqchilik, **1914 ta** parrandachilik, **147 ta** quyonchilik va **1355 ta** asalarichilik loyihalari ishga tushirildi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish natijasida hisobot davrida **4,8 mingta** yangi tadbirkorlik sub'ekti tashkil etildi.

Lekin, bu borada viloyatda mavjud imkoniyatdan to'liq foydalanilmagan.

Tadbirkorlar bilan ishlashda ularga yetarli amaliy yordam ko'rsatilmagani natijasida **Termiz** shahrida **174 ta**, **Sho'rchi** tumanida **184 ta**, **Denov** tumanida **180 ta**, **Jarqo'rg'on** tumanida **155 ta** **Sherobod** tumanida **136 ta**, **Qumqo'rg'on** tumanida **115 ta** tadbirkorlik sub'ekti faoliyat ko'rsatmayapti.

Shunindek, boqimanda qarzdorlik **140 mlrd.so'mni** yoki **1,4 barobarga** oshgan bo'lsa, shundan **Bandixon** tumanida **236 mln. so'mni (219 %)**, **Muzrabot** tumanida **647 mln. so'mni (165 %)** tashkil etmoqda.

Yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha.

Xalqimizning kayfiyatiga ta‘sir etuvchi yana bir muhim omil bu- ish joylarini tashkil etish hisoblanadi.

Joriy yilda aholi bandligini ta‘minlash dasturiga muvofiq **22 ming ta** doimiy yangi ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, jamoat ishlariga **43 ming nafar** fuqaro jalb etildi.

Amalga oshirilgan ishlarga qaramasdan, bugungi kunda viloyatda **112 ming** ishsiz fuqaro mavjud bo‘lib, ishsizlik darajasi **9,9 foizni** tashkil etadi.

Shundan, **Qumqo‘rg‘on** tumanida **9 ming 436 nafar**, **Muzrabot** tumanida **5 ming 757 nafar**, **Bandixon** tumanida **2 ming 276 nafar** **Qiziriq** tumanida **4 ming 178 nafar** fuqaro ishsiz.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati **3,2 trln. so‘mga** teng **1 078 ta** loyiha ishga tushirilib, **9,2 mingdan ziyod yangi** ish o‘rni yaratildi.

Jumladan, sanoat sohasida **1,2 trln. so‘mlik 254 ta**, qishloq xo‘jaligida **885 mlrd. so‘mlik 341 ta**, xizmat ko‘rsatishda **1,1 mlrd. so‘mlik 331 ta** loyiha foydalanishga topshirildi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda asosiy e‘tibor mahalliy xom ashyoni qayta ishlash orqali eksportbop tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratilmoqda.

Misol uchun,

Termiz shahrida "**Avgan Bazar Silk Karpet Aziya**" **qo‘shma korxonasi** qiymati **55 mlrd. so‘mga** teng bo‘lgan "**Ipak va jundan gilam ishlab chiqarish**" **loyahasini tashkil etish evaziga, 100 ta** yangi ish o‘rni barpo etdi.

Ushbu loyihaning eng e‘tiborli tomoni shundaki bugungi kunda foydalanilmayotgan jun xom ashyosini qayta ishlash orqali qariyb 2 ming tonna junni shunchaki tashlab yuborishning oldi olindi.

Mazkur loyihaning ishga tushirilishi atrof-muhit tozaligiga hissa qo‘shibgina qolmasdan, aholi daromadlarini oshirishdagi hissasi ham beqiyos bo‘lmoqda.

Muzrabot tumanida "**Alpomish Servis Invest**" **XK** tomonidan qiymati **48,2 mlrd. so‘mlik** "**Bir martalik shpris va bint ishlab chiqarish korxonasi tashkil etildi.**

Zamonaviy xorij texnologiyasi bilan jihozlangan yangi korxonada 70 kishining bandligi ta'minlandi. Ularning 40 nafari "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolardir.

Viloyatda yagona bo'lgan korxonada yiliga **200 ming** dona bir martalik shpris mahsuloti ishlab chiqaradi. Uning **40 foizi** ichki bozorga sotiladi. **60 foizi** xorijga eksport qilinadi. Kelgusida bu yerda tibbiyot qo'lqoplari va tibbiyot uchun suyuqlik ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, yana **80 ta** yangi ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda.

Lekin, barcha rejalashtirilgan loyihalar amalga oshirildi deb bo'lmaydi. Masalan, Boysun, Jarqo'rg'on, Termiz tumanlarida bironta ham yirik ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmagan.

Ishga tushgan kichik loyihalar hisobiga **Boysun** tumanida atiga **160 ta**, **Uzun** tumanida **404 ta**, **Sherabod** tumanida **414 ta**, **Termiz** tumanida **421 ta** yangi ish o'rni **yaratilgan, xolos**.

Mahalliyashtirish dasturiga asosan, **23 ta** import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish natijasida **62 mlrd. so'mlik** mahsulot ishlab chiqarildi.

Misol uchun, Boysun tumanida "PRB Investment Ko" MChJ 1,9 mlrd. so'mlik sement mahsulotlari, "Daxbet" qo'shma korxonasi 255 mln. so'mlik har xil turdagi polietilen quvur, Termiz shahridagi "Zibest matras" MChJ 548 mln. so'mlik ortopedik matras va yumshoq mebel mahsulotlari ishlab chiqardi.

Viloyatda sanoat mahsulotlarini import qilish ko'rsatkichlari 2020 yilga nisbatan **6,0 mln. dollarga** kamaydi.

Eksport ko'rsatkilari bo'yicha:

Yilning o'tgan davrida **256 mln. dollarlik** mahsulot eksporti amalga oshirilib, o'tgan yilga nisbatan **129 foizga o'sdi**.

Sanoat mahsulotlari eksport hajmi **172 mln. dollarni**, meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmi **83 mln. dollarni** tashkil etdi.

O'tgan yilga nisbatan, **eksport xajmi Sherabod** tumanida **11,4 mln. dollarga**, **Denov** tumanida **9,6 mln. dollarga**, **Qumqurg'on** tumanida **4,9 mln. dollarga ko'paygan**.

Qadrli Deputatlar!

Mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismi hisobidan Sizlar bilan kelishgan holda:

- * maktabgacha ta'lim muassasalariga **32,8 mlrd. so'm;**
- * umumta'lim maktablariga **26,7 mlrd. so'm;**
- * tibbiyot muassasalariga **20,4 mlrd. so'm;**
- * madaniyat muassasalariga **11,7 mlrd. so'm;**

* ichimlik suvi ta'minotiga **6,7 mlrd. so'm**;

*“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturi ijrosini ta'minlashga **15 mlrd. so'm**;

*Harbiy ma'muriy sektorni rivojlantirish jamg'armasiga **44 mlrd. so'm**;

* mablag' yo'naltirildi.

Bundan tashqari, **kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarni** ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida **2 va 14 yoshgacha nafaqa** hamda moddiy yordam uchun budget mablag'lari hisobidan **141 ming** oilaga **679 mlrd. so'm** mablag' to'lab berildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlari ishlarini samarali tashkil etish maqsadida **47 ta** yangi bino qurildi, shundan **29 tasi davlat-xususiy** sherikchilik asosida barpo etildi. **285 ta** mahalla binosi rekonstruksiya qilindi yoki ta'mirlandi. **265 ta** mahalla fuqarolar yig'ini **mebel** va **orgtexnika** vositalari bilan jixozlandi.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari,

Joriy yilda aholining eng muammoli masalasi bo'lgan yo'l, suv, elektr energiya va gaz ta'minotida katta ishlar qilinib, **647 ta** qishloq va mahallalarning arxitektura va me'moriy qiyofasini yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish ishlari uchun **“Obod qishloq”** va **“Obod mahalla”** davlat dasturlari **1,6 trln. so'm** mablag' sarflandi.

Buning natijasida, **ming kilometr**dan ortiq ichimlik suvi tarmog'i, **1,1 ming kilometr** elektr tarmog'i va **284 ta** transformator o'rnatildi. Mahallalarning **387 kilometr** ichki irrigatsiya tarmoqlari qurildi va ta'mirlandi, **377 km aloqa tarmoqlari** tortilib, **104 ta bazaviy stansiya** modernizatsiya qilindi.

Xususan, viloyat markazidan **220 kilometr** uzoqlikdagi tog'li hududda joylashgan Boysun tumanidagi **“Xo'jaidod”** mahallasida dastur doirasida **14,6 kilometr** ichki yo'llarga tosh yotqizish, **7 kilometr** elektr tarmog'i va **2 ta** transformator punktini o'rnatish va rekonstruksiya qilish, **44-son** va **18-sonli** maktablarni rekonstruksiya va ta'mirlash, qishloq vrachlik punkti binosini qurish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, mahalla aholisini **“Sharrulloq” bulog'i** suv manbasi hisobidan ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida **15 kilometr** tarmoq tortildi.

Tanlab olingan **30 ta mahalla va qishloqlarning** arxitektura va me'moriy qiyofasini yaxshilash maqsadida **2** mingdan ziyod turar-joy binolarining tashqi ko'rinishi tartibga keltirildi.

Shuningdek, **42 ta ko‘p kvartirali** uy-joylarda qurilish-ta‘mirlash ishlari olib borildi.

Xususan, Muzrabot tumani “**Obihayot**” mahallasi hududidagi **28 ta 2 qavatli** turar-joy binosi ta‘mirlanib, yo‘llarga asfalt yotqizildi, beton yo‘laklar qurilib, tungi yoritish tizimlari o‘rnatildi va hududlari obodonlashtirildi.

Xuddi shuningdek, har bir tumanda **bittadan** markaziy ko‘cha tanlab olingan holda jami **58,4 kilometr** piyodalar uchun alohida yo‘laklar va veloyo‘laklar, **16,3 kilometr** irrigatsiya tarmoqlari qurildi, **6 mingga** yaqin tungi yoritish tizimi o‘rnatilib, hududlarda yirik hajmdagi obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Avtomobil yo‘llarini qurish va ta‘mirlash bo‘yicha.

Ichki yo‘llarni ta‘mirlab, aholiga qulay sharoit yaratish uchun **1,2 ming kilometr** tuproq yo‘llarga tosh-shag‘al yotqizildi. **443 km** ichki yo‘lga asfalt to‘shaldi. Shundan, **mahalliy budjet** mablag‘lari hisobidan **22,7 mlrd. so‘m** ajratilib, jami **133,7 km** ichki yo‘llar ta‘mirlandi. Xususan, **89,5 km** shag‘al va **44,2 km** asfalthash ishlari bajarildi.

Umumiy olganda joriy yilda yo‘llarni ta‘mirlashga **426 mlrd. so‘m** ajratildi. Bu esa, 2020 yilga nisbatan **3 barobarga**, 2016 yilga nisbatan **5 barobarga** ko‘p, degani.

Biroq, bu sohada hali muammolarimiz yetarli. **6 200 km** ichki yo‘l ta‘mirtalab ahvolda. Misol uchun, **Boysun** tumanida **808 km**, **Qo‘mqo‘rg‘onda** **748 km** yo‘l talabga javob bermaydi.

Ichimlik va oqova suv ta‘minoti bo‘yicha.

Viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash maqsadida **729 km** ichimlik suvi tarmoqlari tortildi. Ushbu ishlar uchun jami **244 mlrd. so‘m** sarflandi. Natijada, **88 ming** aholi ilk bor toza ichimlik suvi bilan ta‘minlandi va **142 ming** aholining ta‘minoti yaxshilandi.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda viloyat **aholisining 40 foizdan ortig‘i** markazlashgan ichimlik suv ta‘minotiga ega emas.

Misol uchun, markazlashgan ichimlik suvi ta‘minoti **Angorda 35 foizni**, **Boysunda 36 foizni**, **Sherobodda 37 foizni** va **Bandixonda 39 foizni** tashkil etadi.

Ushbu muammoni hal etish uchun hurmatli Prezidentimizning shaxsan o‘zlari **138 mln. dollar** mablag‘ masalasini hal etib berdilar. Xabarlarigiz bor, xalqimizning ko‘p yillik orzusini ruyobga chiqarish uchun “To‘palang” suv omboridan Termiz shahrigacha sifatli ichimlik suv yetkazib kelish loyihasi boshlandi.

Bu loyiha **1,7 mln** aholi istiqomat qiladigan **493 ta** mahallaning suv ta‘minotini tubdan yaxshilaydi.

Tabiiy gaz ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha

Hurmatli Prezidentimizning 2021 yil viloyatga tashriflari chog'ida berilgan topshirig'i asosida Termiz shahri iste'molchilarini gazlashtirish uchun Angor tumani "**Bahor**" mahallasidagi "**Qoraqir**" AGRSdan **46 km** yuqori bosimli gaz tarmog'ini tortish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, tabiiy gaz nazorati hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish maqsadida aholi xonadonlariga **81 mingta** yangi hisoblagich o'rnatildi.

Suyultirilgan gaz ta'minotini avtomatlashtirilgan tizimga moslashtirish doirasida **444 ming ta "ID-kartalar"** tarqatildi.

Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash bo'yicha.

joriy yilda 1,1 ming **km** elektr tarmog'i va 284 **dona** transformator punkti yangidan o'rnatildi va rekonstruksiya qilindi.

300 mingdan ortiq aholi xonadonlariga zamonaviy elektr hisoblagich o'rnatildi.

Hurmatli deputalar,

O'tgan 20-25 yilda kommunal sohaga yetarli e'tibor qaratilmagani va zarur mablag' ajratilmagani uchun sohada muammolar ko'payib ketgan edi.

Keyingi yillarda bu tizimda keskin o'zgarish bo'layotganini barchamiz ko'rib turibmiz.

Biroq, "**qars ikki qo'ldan chiqadi**" deganidek, ayrim hududlarda kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorlik yuqoriligicha qolmoqda.

Jumladan,

- tabiiy gaz iste'molidan eng yuqori qarzdorlik **Termiz** tumanida **2,9 mlrd. so'm**, **Sherobodda 1,1 mlrd. so'm**, hamda **Termiz** shahrida **1,3 mlrd. so'mni tashkil etadi.**

- elektr energiya iste'moli bo'yicha **Denovda 40 mlrd. so'm**, **Sherobodda 20 mlrd. so'm**, **Jarqo'rg'on, Oltinsoy, Uzun tumanlarida 9-11 mlrd. so'mdan.**

- ichimlik suvi iste'moli bo'yicha **Termiz** shahrida **7,3 mlrd so'm**, **Sariosiyo va Termiz tumanlarida 1,5 mlrd so'm**, **Sho'rchida 2,5 mlrd so'm.**

- **chiqindi xizmati bo'yicha Denov 3 mlrd. so'm**, **Sariosiyo, Termiz, Uzun va Sho'rchi tumanlarida 2 mlrd. so'm**, **Termiz shahrida 3,7 mlrd so'mlik** qarzdorliklar mavjud.

Uy-joy fondini yaxshilash.

Aholining yana bir muhim talabi ya'ni, uy-joy bilan ta'minlash masalasiga ham to'xtalib o'tmoqchiman.

Viloyatda jami **1 485 ta** ko'p qavatli uylarga **41 ta** uy-joy mulkdorlari shirkatlari va **13 ta boshqaruv kompaniyalari** tomonidan xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

2021 yilda **216 ta** ko'p qavatli uylarni ta'mirlash va hududlarini obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlar uchun **10,4 mlrd. so'm** mablag' yo'naltirildi.

Xususan, **60 ta** uylarning **tom qismi** va **51 tasining fasad qismini** ta'mirlandi, **68 ta bolalar maydonchalari** tashkil etildi, **24,5 ming kv.m** tratuarlarga beton yotqizildi, **200 dan** ortiq yoritish chiroqlari o'rnatildi.

Shuni takidlash lozimki, joriy yilda Termiz shahridagi **6 ta** mahalladagi **109 ta** ko'p qavatli uy joylarni qamrab olgan **8 ta shirkatlarni** maqbullashtirish hisobiga **1 ta "Sarvar Termiz Servis"** Boshqaruv Kompaniyasi tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu boshqaruv kompaniyasi nafaqat ko'p-qavatli uylarga balki hududdagi **boshqa sub'ektlarga** ham **xizmat** ko'rsatmoqda.

Boshqaruv tashkilotida **24 soat "Onlayn"** ishlaydigan **avariya dispetcherlik** xizmati tashkil etilgan bo'lib, axolining soxadagi murojaatlari yuzasidan muammolarni joyida bartaraf etish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek xuddi shunday boshqaruv kompaniyalari **Angor, Sherobod, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Uzun** va **Sariosiyo** tumanlarida tashkil etildi.

Joriy yilda viloyatda jami **6,2 ming kvartirali 155 ta ko'p qavatli**, shundan davlat dasturi doirasida **3,6 ming kvartirali 84 ta** va tadbirkorlar tomonidan **2,6 ming kvartirali 71 ta** ko'p qavatli uy-joylar qurildi.

Aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat budjeti mablag'lari hisobidan **subsidiya** ajratilishi belgilangan.

Joriy yilda **Subsidiya** asosida uy-joy sotib olish yuzasidan **4 463 nafar** fuqarolar murojaat qilgan, ushbu murojaatlar hududiy komissiyalar tomonidan o'rganilib, **2 286 tasiga subsidiya** ajratilishi to'g'risida ijobiy xulosa berilgan va **1 670 nafar** fuqarolarning murojaatlari o'rganish jarayonida.

Ijobiy xulosa berilgan **562 nafar** fuqaroga **17,2 mlrd. so'm** subsidiya mablag'lari ajratildi.

Qolgan fuqarolarga nizom talablariga muvofiq subsidiya mablag'lari ijobiy xulosa olingan kundan boshlab **bir yil** davomida ajratib beriladi.

Hurmatli deputatlar!

Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamini himoya qilish, yoshlar va ayollar muammolarini xal etish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan **"Temir daftar"**, **"Yoshlar daftari"** va **"Ayollar daftar"**i joriy etilgan.

“**Temir daftar**”ga joriy yilda **8 132** ta oilalar kiritilib, ularning **5 402** tasining daromad manbai yaratib berilishi hisobiga daftardan chiqarildi.

“**Temir daftar**”ga kiritilgan mehnatga layoqatsiz, nogironlari va surunkali kasallikka chalingan a’zolari bor, boquvchisini yo‘qotgan va ko‘p (4 va undan ortiq) farzandli ehtiyojmand oilalar sektorlar rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olindi.

Yoshlar daftari bo‘yicha:

Viloyatda yoshlarning bandligini ta’minlash, ularning muammolarini hal etish maqsadida **3 bosqichda** monitoring qilish imkonini beruvchi “**Yoshlar daftari**” yagona elektron platformasi ishga tushirilib, “Yoshlar daftari”ni yuritish to‘liq elektronlashtirildi.

Bir so‘z bilan aytganda yil davomida yoshlarning bandligini ta’minlash, ularning muammolarini hal etish uchun shakllantirilgan “**Yoshlar daftari**” asosida **46 ming 412 nafar** yigit-qiz kasb-hunarga o‘rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari va subsidiyalar ajratish orqali qo‘llab-quvvatlandi.

Jumladan, 12 ming 86 nafari doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, **5 ming 82 nafariga** subsidiyalar ajratildi, **695 nafariga** to‘lov-shartnoma pullari, **126 nafariga** safarbarlik chaqiruv rezervi pullari to‘lab berildi.

Bundan tashqari, 415 nafar yoshlarimiz haydovchilik kurslarida o‘qitildi.

Shuningdek, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun har bir tuman, shaharda moliyaviy manbalari aniq belgilangan alohida jamg‘armalar tashkil etildi.

Hozir mazkur jamg‘arma mablag‘lari hisobidan yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash ishlari davom ettirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar davomi sifatida kirib kelayotgan **2022 yilda** ham jami **36 ming 722 nafar** yigit-qizning bandligini ta’minlashni rejalashtirib olganmiz.

Hurmatli Prezidentimiz yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga alohida e’tibor bermoqdalar.

Buning isbotini joriy yilning o‘zida davlatimizning **1 ta** Farmon, **2 ta** qarori qabul qilinganida ham ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur farmon va qarorlarga muvofiq Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha har bir shahar (tuman)da Bolalarni ximoya qilish sho‘balari hamda viloyatlarda Bolalarni ximoya qilish kotibiyatlari tashkil etildi.

Bu bilan kelajagimiz egalariga yana qator imkoniyat yaratildi.

Shu yilning o‘zida viloyatda **3 ta** oilaviy bolalar uyi tashkil etilib, mehribonlik uyi farzandlarini o‘z bag‘riga oldi.

Shuningdek, kuni-kecha Termiz shahridagi 12-sonli Mehribonlik uyini tamomlagan **13 nafar** bolaga to‘liq jihozlangan uy-joy olib berildi. 2022 yilda yana ularning **49 nafari** yangi o‘y-joy bilan ta‘minlanadi.

Shu yerda yana bir narsani aytish kerakki, endi mamlakatimizda Mehribonlik uylari bo‘lmaydi. Yetim bolalar oilaviy bolalar uylarida kamolga yetib, jamiyatga moslashadi.

Xotin-qizlarning faolligini oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlash borasida:

“**Ayollar daftari**”ga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir hamda yordamga muhtoj **59 ming** xotin-qiz kiritilib, ularning muammolari hal etib berildi.

Xususan, **23 ming 700 nafar** xotin-qizning bandligi ta‘minlandi.

8 ming 900 nafar boquvchisini yo‘qotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj nogiron bolalari mavjud yolg‘iz ayollarga **4,2 mlrd. so‘mlik** bir martalik moddiy yordam ajratildi.

Oliy ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha davlat grantlari asosida **153 nafar** xotin-qiz o‘qishga qabul qilindi, **5 ming nafar** xotin-qizga tabdirkorlik qilishi uchun **104 mlrd so‘m** imtiyozli kredit ajratildi, **122 nafar** og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushgan ayolga uy-joy olish uchun boshlang‘ich badallari to‘lab berildi.

Shu bilan birga, viloyatda **2050 ta** oilaviy ajrim qayd etilib, (2020 yilda **1453 ta**) **597 taga** (**41 foiz**)ga ko‘paygani tashvishli xolatdir.

Jumladan, Termiz shahrida **291 ta**, Denov tumanida **254 ta**, Sariosiyoda **195 ta**, Jarqo‘rg‘on tumanida **193 ta**, Qumqo‘rg‘onda **188 ta** ajrim qayd etilgan.

Bu esa o‘z navbatida mahalla tizimi va boshqa mas‘ullarning oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, notinch oilalar bilan ishlash, ajrimlarning oldini olish borasidagi ishlari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Qishloq xo‘jaligi viloyatimiz iqtisodiyotida asosiy tarmoq hisoblanadi.

Joriy yilda suv tanqisligiga qaramasdan dehqonlarimizning mashaqatli mehnati hamda klaster tizimining joriy etilishi natijasida mo‘l hosil olindi.

Xususan, o‘tgan yilga nisbatan paxta hosildorligi **7,5 sentnerga** oshib, **35 sentnerni**, g‘alladan **8 sentnerga** oshib, **67 sentnerni** tashkil etdi.

Shuningdek, pilla yetishtirish **400 tonnaga**, meva va uzum **65 ming tonnaga**, sabzavot va poliz **200 ming tonnaga**, go‘sht **5 ming tonnaga**, sut **27 ming tonnaga** oshdi.

2021 yilda **11 ming gektarda** yangi bog‘, **5 ming** gektarda anorzor, **3,6 ming gektarda** uzumzor tashkil etildi.

Shuningdek, **14,5 ming gektar** maydon qayta o‘zlashtirildi, **28 ming gektarda** suv tejash texnologiyalari joriy etildi.

Chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun 133 ta loyihaga **94 mlrd. so‘m** bank krediti ajratilib, **5 155 bosh** qoramol va **21 200 bosh mayda** shoxli naslli mol chetdan olib kelindi.

Parrandachilik sohasida 32,1 mlrd. so‘mlik 34 ta loyiha bo‘yicha **943 ming bosh** parranda va **balikchilik sohasida 33 gektar sun‘iy va 12 gektar intensiv ko‘l tashkil qilindi.**

Aziz deputatlar va sessiya qatnashchilari!

Bugungi kunda issiqxonlarda sabzavot va limon yetishtirish viloyatimizning asosiy drayveriga aylanmoqda.

Jumladan, 2016 yilgacha viloyatda **450 gektar** issiqxona mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich **2 550 gektarni** tashkil etib, **5 barobarga** oshirildi.

Xususan, joriy yilda barpo etilgan **250 gektar** issiqxonaning **130 gektari 6 500 ta** xonadonlarda bo‘lib, aholining asosiy daromad manbaiga aylanmoqda.

Misol uchun, Bandixon tumanidagi “Limonzor” mahallasidagi **500 xonadonning 170 tasida** limon yetishtirilib, bir oila o‘rtacha **45-50 mln. so‘mdan** daromad olmoqda. 2021 yilda ushbu mahallada **100 xonadonda** limonzor tashkil etilgan bo‘lsa, keyingi yillarda yana **120 xonadon isiqxona qurishni** rejalashtirgan.

Ya‘ni, **10 sotix** yer maydoni mavjud xonadon o‘zini-o‘zi to‘liq band qilib, yaxshi daromad olishi mumkinligini bu mahalla amalda ko‘rsatib bermoqda.

Hurmatli deputatlar !

Maktabgacha ta‘lim tizimini yaxshilash maqsadida joriy yilda **53 ta**, shundan, mahalliy budget mablag‘i hisobidan yengil konstruksiyadan foydalangan holda **28 ta** maktabgacha ta‘lim tashkilotlari binolari qurish ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari, **11 ta** davlat-xususiy sheriklik asosida hamda **906 ta** oilaviy bog‘cha tashkil etildi.

Natijada, viloyatdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni **2 044 tani**, shundan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari **382 ta**, xususiy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari **8 ta**, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari **148 ta**, oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari **1 506 taga yetdi.**

Qamrov yil boshidagi **41,5 foizdan - 50,1 foizga** yetkazildi.

Tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich 2017 yilda atigi **13,6 %**, 2018 yilda **18,6 %**, 2019 yilda **35,0 %**, 2020 yilda **41,5 %** tashkil etgan.

Lekin, bu borada yetarli ishlar amalga oshirilmagani uchun bolalar qamrovi **Bandixon** tumanida **32,5 foiz**, **Denovda 40,9 foiz**, **Boysunda 39,8 foiz** bo‘lib, hamon pastligicha qolmoqda.

Umumta‘lim maktablari bo‘yicha:

Viloyatda **933 ta** umum ta‘lim maktabi mavjud bo‘lib, 2021 yilda jami **712 ta** umumta‘lim maktabida qurilish-ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. Jumladan **3 ta** maktab yangidan bunyod etildi, **70 ta** maktabga qo‘shimcha bino qurildi, **19 ta** maktab mukammal ta‘mirlandi, **619 ta** maktabda joriy ta‘mirlash ishlari olib borildi.

O‘tayotgan yilda **33 ta** umumta‘lim maktabi uchun **11,7 mlrd. so‘mlik** mebel, o‘quv-laboratoriya jihozlari, sport anjomlari va boshqa texnik vositalar yetkazib berildi.

Mahalliy budjet hisobidan **5 ming 600 komplekt** o‘quv partasi bilan ta‘minlandi.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda **69 ta** maktabning o‘quvchilar koeffitsienti yuqori, **89 ta** maktab mukammal ta‘mirga muhtoj, **254 ta** maktabga ichimlik suvi tashib keltiriladi, **247 ta** maktab atrofi to‘liq o‘ralmagan, **320 ta** maktabda sport zal binosi yo‘q.

Respublikada oliy ta‘lim kvotalari yildan-yilga oshib bormoqda. Viloyatda bu ko‘rsatkich **24 foizga** oshirildi.

Lekin, viloyatda **10 ta** maktabning bironta ham bitiruvchisi oliy ta‘lim muassasalariga kirmagan.

Boysun tumanida 3 ta 15-, 24-46-maktablar, Oltinsoy tumanida 3 ta 19-, 35-, 37-maktablar, Sherobod tumanida 2 ta 35-, 69-maktablar, Jarqo‘rg‘on tumani 45-maktab, Qumqo‘rg‘on tumani 11-maktablari.

Bundan tashqari, jami **43 ming** o‘qituvchi pedagoglardan bor yo‘g‘i, **3 foizi (1305 nafar)** oliy toifali, **11,6 foizi (5022 nafar)** birinchi toifali, **23,6 foizi (10236 nafar)** ikkinchi toifali o‘qituvchilardir. Bundan ko‘rinib turibdiki, kadrlar sifatini hamda salohiyatini oshirish bo‘yicha hali ko‘p ishlarni bajarishimiz lozim.

Sog‘liqni saqlash bo‘yicha:

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini oshirish hamda tor doiradagi kasalliklarni viloyat hududida davolashni tashkil etishga asosiy e‘tibor qaratildi.

Xususan, viloyatda yangi **12 ta** oilaviy shifokorlik punktlari va **1 ta** oilaviy poliklinika ishga tushirildi, **69 ta** birlamchi tibbiyot muassasasi ta'mirlandi.

2,5 mln aholi tibbiy xatlovdan o'tkazildi, **418 ming nafar** kasallik aniqlangan shaxslarning **398 ming nafarida** sog'lomlashtirish tadbirlari olib borildi.

Dori vositalari va tibbiyot buyumlari sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar **65 mlrd so'mni** tashkil etib, **3 barobarga** oshirildi.

Joriy yilda viloyat **kardiologiya** markazining zamonaviy **angiograf** va **aritmologik** kompleks bilan jihozlanishi hisobiga birinchi marotaba koronografiya, yurak va boshqa organ tomirlarini stentlash, tug'ma yurak nuqsonlarni bartaraf etish (Okklyuder qo'yish) hamda kardiostimulyator qo'yish kabi murakkab jarroxlik amaliyotlari o'tkazildi.

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida **4 nafar** bemorda buyrak transplantatsiyasi jarroxlik amaliyoti amalga oshirildi.

Viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida **6 nafar** bolada ilk marta tug'ma yurak nuqsonlarini bartaraf etish jarroxlik amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bunday murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'zimizda o'tkazish uchun shu yil Rossiyaga xizmat safari bilan borganimizda Novosibirsk shahridagi akademik K.N.Meshalkin nomidagi "**Milliy tibbiy ilmiy tekshirish tibbiyot markazi**" hamda Krasnoyarsk o'lkasidagi "**Yurak qon-tomir markazi**" bilan yaqindan tanishib, o'zaro tajriba almashish, shifokorlarimiz malakasini oshirish va bu klinikalarning tajribalarini viloyatimizda joriy etish bo'yicha hamkorlik o'rnatib qaytgan edik.

Shu kelishuvga asosan akademik K.N.Meshalkin nomidagi "**Milliy tibbiy ilmiy tekshirish tibbiyot markazi**"ning eng malakali shifokorlari viloyatimizga kelib, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiy markazi Surxondaryo filialida mahalliy shifokorlarimiz bilan 50 dan ortiq bemorda murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazdi. Bu bir bemorning o'rtacha 76 million so'mni tejab qolish imkonini berdi. Shu hisobda o'zimizda jarrohlik amaliyotini o'tkazgan 50 dan ortiq bemor oilaviy budjetining 2 milliard 600 million so'mdan ziyod mablag'ini tejab qoldi. Ikkinchidan, bemorlarimiz Vatandan olisda, musofir yurtda emas, kindik qoni tomgan yurtda qavmu-qarindoshlari ko'z o'ngida jarrohlik amaliyotidan o'tib, tez sog'aydi.

Sohada yuz bergan bu o'zgarishlarni inson qadrini ulug'lash, bemorlarimizning davolanishi uchun olis joylarga borib sargardon bo'lishiga chek qo'yish hamda sarflanadigan mablag'ni tejab maqsadida amalga oshirayotganimizni barchangiz to'g'ri his etib turibsiz, degan umiddaman.

Masalan, birgina shu yilning o'tgan davrida **426 nafar** oilaviy sharoiti og'ir fuqarolar va yaqinlarining davolanishi hamda jarrohlik amaliyotini o'tkazishga ko'maklashish uchun **2 mlrd. 910 mln.** so'm moddiy yordam ko'rsatildi.

Keling, shu o‘rinda bir nechta misol ham keltiraman: Jarqo‘rg‘on tumani Mehnatobod mahallasida yashovchi Shukrona Shodimahmatovaga Rossiyaning Moskva shahrida ko‘z kasalligi bo‘yicha jarrohlik amaliyotini o‘tkazishi uchun 37 mln so‘m mablag‘ ajratib berildi.

Yoki, Oltinsoy tumani “Mo‘minqul” mahallasida yashovchi Xudoyberdiev Bahodirning jigar serrozi bo‘yicha Hindiston davlatida o‘tkazilishi rejalashtirilgan jarrohlik amaliyoti uchun 40 mln so‘m moddiy yordam ajratildi.

Qumqo‘rg‘on tumani “Islomobod” mahallasida yashovchi Nomozov Abduraimning jigar serrozi bo‘yicha Hindiston davlatida o‘tkazilishi rejalashtirilgan jarrohlik amaliyoti uchun 30 mln so‘m moddiy yordam ko‘rsatildi.

Angor tumani “Qorasuv” mahallasida yashovchi fuqaro Dilfuza Ochilovaga hozirgi kunda sharoiti o‘ta og‘irligi sababli bir yoshli farzandining yurak jarrohlik amaliyoti (shartnoma asosida) uchun 24 mln. so‘m;

- Termiz shahar Hamza ko‘chasi 27-uyda yashovchi fuqaro Moxida Jumaevaga turmush o‘rtog‘i O‘lmas Yo‘ldoshevni yurak kasalligi bo‘yicha davolanishi uchun shartnomaga asosan 21 mln. so‘m;

Yurak qon tomir, buyrak, jigar kabi a‘zolar kasalliklariga chalingan bemorlar davolanish uchun chetga chiqishining yana bir sababi– kadrlar salohiyatining yetishmasligi edi.

Bu muammoga barxam berish uchun biz xorijlik eng tajribali soha mutaxassislarini viloyatimizga jalb etish barobarida shifokorlarimizning chetda tajriba almashishini ham yo‘lga qo‘yib oldik.

Endilikda viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi kardiojarrohlik va buyrak transplantatsiyasi amaliyotini yo‘lga qo‘yish uchun zarur yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar bilan jixozlanadi, vohamiz mutaxassislari respublika markazi va xorijiy klinikalarda 3 oydan 6 oyga qadar kasbiy mahoratini oshiradi.

Hurmatli deputatlar, sesssiya ishtirokchilari!

O‘tayotgan yilda viloyatda davlat xususiy sherikchilik asosida tibbiyot birlashmalari tarkibidagi shifoxona va poliklinikalarning laboratoriya xizmatini autsorsing asosida xususiy sektorga berish amaliyotida Surxondaryo tajribasini yaratdik.

Turkiyaning “Kanilab” kompaniyasiga qarashli “Alles Sag‘lik Group” MChJ xususiy korxonasi bilan hamkorlikda ishlab, Angor tumanida tajriba tariqasida laboratoriya xizmati bo‘yicha autsorsing tizimini yo‘lga qo‘ydik.

Xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimizni qaytarish choralarini ko‘rib, **2020 yilda** chet mamlakatlardan **49 nafar** malakali vrach qaytarildi.

Bu yil yana **36 nafar** shifokor bilan muzokara olib borib, bugungacha **6 nafar**, shu jumladan Rossiya federatsiyasidan **4**, Yaman davlatidan **1** va

Tojikiston Respublikasidan **1 nafarini** viloyatga qaytarib, ularga zarur sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari afgʻon millatiga mansub 2 nafar xorijda ishlab, boy tajriba toʻplagan yuqori malakali shifokor ishga qabul qilindi (*Muzrabot tumanida akusher-ginekolog, Termiz shahrida oftalmolog*)

Yana bir muhim masala, hurmatli Prezidentimiz gʻamxoʻrligi bilan klinik ordinaturada oʻqish kvotasi **2 barobarga** oshirilgani tufayli tufayli bu yil **95 nafar** bitiruvchimiz klinik ordinaturada oʻqiyotgan boʻlsa, **48 nafarining** shartnoma pullari viloyat mahalliy budjetidan qoplab berildi.

Bu boradagi barcha ishlar zamirida yagona maqsad–xalqimiz salomatligini saqlash va tibbiy madaniyatini oshirish masalasi turibdi.

Vaxolanki, mendagi maʼlumotlarga koʻra, mutaxassislar viloyatda kasalliklarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilganida aholining sogʻlom turmush tarziga rioya etmasligi koʻpgina kasalliklarga sabab boʻlayotganini aniqlagan. Albatta, sogʻlom turmush tarzini taʼminlashda jismoniy tarbiya va sportning ham oʻz oʻrni bor.

Viloyatda aholining sport bilan shugʻullanishini koʻpaytirish maqsadida joriy yilda **658 ta** “Vorkaut”, **167 ta** “Stritbol”, **92 ta** badminton, **66 ta** mini-futbol maydonchasi, **15 ta** fitnes zallari, **8 ta** (**3 ta** ochiq va **5 ta** yopiq turdagi) suzish xavzalari, **32,5 km.** piyodalar va velosiped yoʻlakchalari tashkil etildi.

Natijada viloyatdagi aholining **685 ming nafari** sportga jalb qilinib, sport bilan shugʻullanish darajasi **22,1 foizda 25,4 foizga** oʻsdi.

Jinoyatchilik va huquqbuzarlik sohasi boʻyicha:

Jinoyatchilikni kamaytirish borasida barcha hududlarda **4 ta** sektor rahbarlarining bevosita ishtirokida jinoyat va maʼmuriy holatlar muhokamasi kuchaytirilib, ularning sifati va natijadorligiga eʼtibor qaratilmoqda.

Joriy yilning **11 oyida** mavjud mahallalarning **255 tasida** jinoyat sodir etilmagan, **219 tasida** oshgan, **188 tasida kamaygan**.

Sodir etilgan jinoyatlarning har uchinchisini (**3970 tadan, 1360 tasi 36%**) firibgarlik (**705 ta**), oʻgʻirlik (**524 ta**), yoʻl-transport hodisalarini (**131 ta**) tashkil etadi.

Shuningdek, firibgarlik jinoyatlarining **584 tasi** pul oldi berdi masalasida, **69 tasi** oʻqishga va ishga kiritish va **52 tasi** esa chet davlatga ishga joʻnatish maqsadida sodir etilgan.

Mahallada sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish maqsadida **3 ta** toifaga ajratish amaliyoti yoʻlga qoʻyilib, “jinoyatlar oshgan” mahallalarda Milliy gvardiya xodimlari bilan birgada qoʻshimcha patrullik yoʻnalishlari tashkil etildi.

Qadrli deputatlar !

Viloyatda ayollar muammolari bilan tuman hokimlari va ularning xotin-qizlar boʻyicha maslahatchilari yetarli ishlarni olib bormagani natijasida **455 ta**

notinch oila ro'yhatga olingan, **558 ta** shar'iy niqoxda turgan oila hamda **689 ta** ajrim yoqasidagi oila mavjud.

Eng tashvishga soladigan yana bir masala- o'tgan davrda **348 nafar** ayol tomonidan jinoyat sodir etilgan, **195 holat** shundan, **74** ayol o'z joniga qasd qilgan, **31 ta** suiqasd holatlari sodir etilgan.

Bu borada eng yomon ahvol **Muzrabot, Sho'rchi, Denov, Uzun** tumanlarida ekani tashvishlidir.

Bu borada mazkur tuman hokimlarining mahalla bo'yicha o'rinbosari, maxalla raislari, ularning xotin qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari yetarli ish olib bormayapti.

Shuning uchun bu muammolar bilan keng jamoatchilik birgalikda ishlab, tushuntirishimiz, mavjud muammolarni o'rganib, ularni xal qilish, yoshlarimizni nikohga tayyorlash kabi tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

Qadrli vohadoshlar!

Davlatimiz rahbari o'zining saylov oldi dasturida **2022-2026 yillarda "Yangi O'zbekistonni"** tashkil etish, bunda asosiy e'tiborni **"inson qadri uchun"** tamoyiliga qaratishni asosiy maqsad qilib berdilar. Shunga muvofiq viloyatimizda ham oltita muhim yo'nalish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. 2022 yilda Sizlar bilan birga barcha ishlarimizni ana shu yo'nalishlar doirasida amalga oshiramiz.

Hurmatli Deputatlar!.

Endi bevosita **2022 yilda viloyatni** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha oldimizda turgan muhim vazifalar va rejalar haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha.

Kelgusi yilda ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish borasida viloyatda **166 ming ta**, shundan **107 mingta** doimiy yangi ish o'rni yaratiladi.

Xususan,

I. Tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohasida 1,1 trln so'm mablag' hisobiga 65 ming ta ish o'rni;

Jumladan, sohalar kesimida

- oilaviy tadbirkorlik dasturi hisobiga **21250 ta (850 mlrd so'm);**
- PQ-5113-son qaror bo'yicha xizmat ko'rsatish loyihalari hisobiga **2369 ta (265 mlrd so'm);**
- Yangi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etish hisobiga **14600 ta;**
- Yer maydonlarini auksionga chiqarib yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga **26 698 ta (325 ga);**

II. Qishloq xo‘jaligi sohasida 100 mlrd so‘m hisobiga 29 533 ta ish o‘rni yaratiladi.

III. Investitsiya dasturlari hisobiga 18611 ta (loyiha soni 828 ta, 6,6 trln so‘m) yangi ish o‘rni yaratiladi.

- Davlat investitsiya dasturi hisobiga **4040 ta (loyiha soni 93 ta, 730,4 mlrd so‘m);**

- Tarmoq investitsiya dasturlari hisobiga **1350 ta (loyiha soni 11 ta, 844,1 mlrd so‘m);**

- hududiy investitsiya dasturlari hisobiga **10620 ta (loyiha soni 725 ta, 5,4 trln so‘m);**

IV. Qo‘shimcha zaxiralar hisobiga 703 mlrd so‘m mablag‘ evaziga 59344 ta yangi ish o‘rni barpo etiladi.

Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun viloyatda iqtisodiy kompleks tashkilotlaridan hamda tadbirkorlardan **721 ta** mahallalarga **“hokim yordamchilari”** tanlab olindi.

Ular tomonidan har bir mahallaning rivojlanish imkoniyatlarini taxlil qilib, asosiy drayverlari belgilab olinadi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda transport xizmatlari sifatini oshirish maqsadida kelgusi yilda **199 ta** avtobus texnikalari olib kelinadi hamda marshrut yo‘nalishlari soni oshiriladi.

Ta‘lim xizmatlarini rivojlantirish maqsadida **871 ta (24 340 o‘rinli) oilaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari** mebel bilan **jihozlanadi** va **ishga tushirish** uchun **502 tasiga** qo‘shimcha **15,0 mlrd so‘m kredit** mablag‘lari hamda **368 tasiga 11,0 mlrd so‘m subsidiya** resurs mablag‘larini ajratish masalasi hal etiladi.

Aholiga tibbiy xizmat sifatini yaxshilash maqsadida **Angor, Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi** va **Termiz** tumanlarida **1 tadan** oilaviy shifokorlik punkti hamda Termiz shahar va Qumqo‘rg‘on tumanida **1 tadan** oilaviy poliklinika tashkil etiladi.

Shuningdek, xususiy **tibbiyotni** rivojlantirish bo‘yicha **35 ta investitsiya loyihalariga 15 mln. dollar kredit** mablag‘lariga ajratish choralari ko‘riladi.

Hududiy investitsiya dasturi bo‘yicha.

Mavjud resurslardan foydalangan holda **2022 yilda** umumiy qiymati **6,2 trln so‘mga teng bo‘lgan 736 ta** loyiha ishga tushirilib, **12 mingga yaqin** yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Misol uchun, Angor tumanida “**Top Kualiti Brend**” MChJ tomonidan qiymati **250 mlrd.** so‘mga teng bo‘lgan **tayyor charm, poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish** loyihasi foydalanishga topshiriladi. Natijada **100 ta** yangi ish o‘rni yaratiladi.

Mazkur loyiha viloyatda qolaversa respublikada eng yirik loyihalardan biri bo‘lishi kutilmoqda, loyihaning ishga tushirilishi natijasida yiliga **20 mln kv.m** teri xomashyosi qayta ishlanib, **500 ming juft** poyabzal ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

Kichik sanoat zonalarini rivojlan-tirish bo‘yicha.

14 ta kichik sanoat zonalarini tashkil etiladi, ularda qiymati **120,1 mlrd so‘m** bo‘lgan **95 ta** investitsiya loyihalari amalga oshiriladi va **620 ta** yangi ishchi o‘rinlari yaratiladi.

Qurilish va ta‘mirlash ishlari bo‘yicha:

Kelgusi yilda **124 ta** ko‘p kvartirali uylar ta‘mirlash va hududlarini obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu ishlar uchun budjet mablag‘lari hisobidan **5,8 mlrd.so‘m** ajratilishi mo‘ljallangan.

Ushbu mablag‘lar hisobidan, **95 ta** uylarning **fasad** qismi va **15 ta** uylarning **tom qismi** ta‘mirlanadi, **27 ta bolalar maydonchalari** tashkil etiladi, **3,5 ming** pogonometr irrigatsiya tarmoqlari ta‘mirlanadi, **8 ming** kvadrat metr trotuarlar beton qoplamasi bilan qoplanadi, **182 ta tashqi yoritish** chiroqlari o‘rnatiladi.

2022 yilda **Angor, Boysun, Sariosiyo, Jarqurg‘on** tumanlarida barpo etiladigan “**Yangi O‘zbekiston**” massivlarida jami **1 560 kvartirali 66 ta** ko‘p qavatli uy-joylar hamda **4 ta ijtimoiy** obe‘ktlari quriladi.

Shuningdek, ipoteka kreditlari hisobidan **2 ming ta** yangi **kvartiralar** va **500 ta yakka** tartibdagi **uy-joylarni** qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Kelgusi yilda **1 733 ta**, shundan **1233 ta** ko‘p qavatli va **500 ta** yakka tarbidagi uy-joylarni qurish-rekonstruksiya qilish uchun **subsidiyalar** ajratiladi.

“Obod qishloq” va **“Obod maxalla”** dasturi doirasida **30 ta** mahalla va qishloqning arxitektura qiyofasi yaxshilanib, obodonlashtiriladi.

Bu tadbirlar uchun jami **351 mlrd. so‘m** mablag‘ ajratiladi.

Aholining turmush darajasini oshirish uchun **bir ming kmdan ortiq** ichki yo‘llar ta‘mirlanadi. Xususan, ichki yo‘llarni ta‘mirlash dasturi doirasida **343,6 km**, shundan **206,2 km** shag‘al yotqizish va **137,4 km** asfalthash ishlari amalga oshiriladi.

1,1 ming km elektr tarmog‘i tortilib, **293 ta** transformator va podstansiya yangilanadi.

Ekologiya bo‘yicha.

Ekologiya sohasiga ham katta e'tibor qaratib, "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida **16 mln dona** daraxt ko'chatlari ekiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasini yaxshilash bo'yicha.

2022 yilda dasturlar doirasida:

- **4 080 o'rinli 28 ta** davlat,
- **550 o'rinli 6 ta** davlat-xususiy sheriklik asosida,
- **6250 o'rinli 250 ta** oilaviy,
- **630 o'rinli 7 ta** yengil konstruksiyali (sendvich panel) davlat MTTlari yangidan tashkil etiladi.

8 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish orqali qo'shimcha **490 o'rin** yaratiladi,

35 ta 6 yoshli majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish orqali **874 nafar** bolalar maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinadi.

Natijada yil yakuniga borib qamrov ko'rsatkichi **55,3 foizga** yetkaziladi.

Xalq ta'limi tizimi bo'yicha.

Maktablar sig'imini oshirish uchun viloyatda **6 ming 104 ta** qo'shimcha o'quvchi o'rnini yaratiladi. Buning uchun, **ta** yangi maktab va **14 ta** maktabda yangi binolar quriladi, **3 ta** maktab mukammal ta'mirlanadi.

Shuningdek, **5 ta** sport, **5 ta** ma'rifat zallari bunyod etiladi va to'liq jihozlanadi. **23 ta** kompyuter sinfxonalari, **5 ta** texnologiya ustaxonalari va **250 ta** maktab kutubxonalari jihozlanib, zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Boysun, Termiz, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Bandixon, Sherobod tumanlarida Ay-Ti, matematika, kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashgan **11 ta** maktab tashkil etiladi.

Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, **7 ta** "Mahalla huquq-tartibot maskan"lari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Qadrli deputatlar, kelgusi yilda qurilish ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlari bo'yicha barcha loyihalar kuni kecha (10.12.2021 yil) hurmatli Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorga asosan (PQ-43-sonli) pudrat tashkilotlarini aniqlash jarayonlarining korrupsiyadan holi, ochiq raqobat sharoitida shaffof bo'lishiga, ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida va maqsadli o'zlashtirilishiga, qurilish ishlarining sifatli hamda belgilangan qurilish me'yorlariga muvofiq olib borilishi qat'iy nazoratga olinadi.

Barcha belgilab olingan tadbirlarni ochiqlik va oshkoralikni ta'minlagan xolda Sizlar bilan kelishib, amalga oshiramiz.

Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan **muhim loyihalar** barcha hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olgan holda **jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganidan keyin** qabul qilinadi.

Qadrli deputatlar va sessiya qatnashchilari! Rahbarlar xususan hokim va uning o'rinbosarlari qanday ishlayotgani endi ular faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK, KPI) asosida baholanib, aniq xulosa berilmoqda.

2021 yilning **9 oylik** yakunlarida **Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha** hokim va uning o'rinbosarlari faoliyati samaradorligi tahlil qilinganida 4 ta ya'ni, Qumqo'rg'on, Boysun, Muzrabot, Jarqo'rg'on tumanlari hokimlari 75 foizdan past ball to'pladi.

Angor (**Farid Umarov**), Bandixon (**Umid Qulmamatov**), Uzun (**Ziyadullo Abdanov**), Oltinsoy (**Xayrullo Qosimov**), Boysun (**Dilmurod Xafizov**), Muzrabot (**Shuxrat Azimov**) va Denov tumani (**Dilmurod Tursunov**) hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari;

Sherobod tumani (**Norqul Maxmadiyorov**), **Jarqo'rg'on** tumani (**Abdulakim Aliyarov**) hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosar faoliyati past baholandi.

- **Jarqo'rg'on** tumani hokimining investitsiya bo'yicha o'rinbosari (**Shaydullo Noraliev**), **Sho'rchi** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Fazliddin Boymirzaev**), **Qiziriq** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Botir Djabborov**), **Uzun** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Nomoz Majidov**), **Sariosiyo** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Sardor Qurbonov**), **Boysun** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Chori Abdunazarov**), **Bandixon** tumani hokimining qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari (**Baxrom Xamraevlar faoliyati ham talabga javob bermadi.**

Shuningdek, Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'yicha o'rinbosari ko'rsatkichlari taxlil qilinganda **Muzrabot** tumani xokimining o'rinbosari (**Fotima Normamatova**) 14 o'rinni, **Jarqo'rg'on** tumani hokimining o'rinbosari (**G'ulom Xo'janov**) eng oxirgi o'rinni egallagan.